

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
---	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'l

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR

PROFILAKTIKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI 213-222

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО

ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА 223-233

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI:

NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA")..... 234-241

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdammovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR

VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL

VA TEVARAK-ATROF 242-246

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT

HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV

HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI 247-251

Temple Chimuany Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS

IN CONCRETE 252-265

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING

HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH

SSENARIYLARI 266-271

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING

IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI 272-277

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK

ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI 278-283

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY

FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... 284-289

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK

FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI..... 290-294

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA

UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH 295-300

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

STILL LIFE CREATED FROM GEOMETRIC SHAPES IN PENCIL DRAWING AND THEORETICAL SOLUTIONS FOR INTEGRATIVE AND SYNERGISTIC TEACHING OF TECHNICAL AND ARTISTIC SCIENCES IN VARIOUS SUBJECTS

Khakberdiev Bakhtiyor Rustamovich

Faculty of Tourism of the

University of Alfraganus

Department of General Professional

Sciences, Associate Professor

E-mail: b.haqberdiyev@afu.uz

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of creating a still life consisting of geometric shapes using pencil drawing. The study analyzes the didactic value of teaching volume, proportion, perspective, and light and shadow relationships through geometric shapes. It also substantiates theoretical solutions for teaching technical and artistic disciplines in conjunction with other disciplines based on an integrative and synergistic approach. The relationship between engineering graphics, fine arts, architecture, and design in an integrated educational process is revealed. The article demonstrates the potential for developing spatial thinking, creative thinking, and professional competencies in students through a synergistic approach.

Keywords: pencil drawing, geometry, form, still life, technique, art, synergy, competence, monument, emotion, aesthetics, composition, objects, weapon, perspective, sphere, cube, prism, cone, cylinder.

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

Alfraganus universiteti Turizm fakulteti

Umumkasbiy fanlar kafedrasi (PhD) dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada qalamtasvirda geometrik shakllardan tashkil topgan natyurmortni bajarishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida geometrik shakllar orqali hajm, nisbat, perspektiva, yorug-soya munosabatlarini o'rgatishning didaktik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, texnik va san'at fanlarini boshqa fanlar bilan integrativ hamda sinergetik yondashuv asosida o'qitishning nazariy yechimlari asoslab beriladi. Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida muhandislik grafikasi, tasviriy san'at, arxitektura va dizayn fanlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib beriladi. Maqolada sinergetik yondashuv orqali talabalarda fazoviy tafakkur, ijodiy fikrlash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: qalamtasvir, geometriya, shakl, natyurmort, texnika, san'at, sinergetika, kompetentlik, yodgorlik, his-tuyg'u, estetika, kompozitsiya, buyumlar, qurol-aslahalar, perspektiva, shar, kub, prizma, konus, silindr.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N29>

Kirish. Insoniyat yaratib qoldirgan madaniy boyliklar faqat o'tmish kishilaridan qolgan yoki yaratilayotgan boyliklar bo'lib qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rganish, uning taraqqiyot

qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish o'tmish odamlarining his-tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviy-estetik qarashlarining shakllanishini bilish demakdir. Natyurmort fransuz tilidan olingan bo'lib jonsiz tabiat degan ma'noni beradi. Natyurmort har bir ijodkor rassomning ichki olamini mukammal tarzda aks ettiruvchi janr hisoblanadi. Qalamtasvirda geometrik shakllardan tashkil topgan natyurmort yaratish - bu tasviriy san'at fanlarida mahoratini oshirish va kompozitsiyani his qilishni rivojlantirish uchun ajoyib mashqdir. Bu usul barchamizga shakllar, proporsiyalar, yorug'lik va soyalar bilan ishlashni o'rgatadi[1. 65-b].


Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tasviriy san'atni o'qitishni takomillashtirish, rangtasvir, san'atshunoslik asosida kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari bo'yicha S.F.Abdurasilov, A.P.Sulaymonov, R.Hasanov, B.B.Boymetov, S.S.Bulatov, D.Irgashev, B.R.Haqberdiyev, V.I.Petrushin, B.C.Kuzin, T.I.Berbash, N.N.Rostovsev, K.V.Makarova, B.P.Yusov, S.A.Loginova, U.N.Abdullayev, Sh.R.Qobilov, O.Muinov, N.Oydinov, I.B. Kamolov, B.Qurbonova S.Arieti, N.Fovler, J.Self, L.M.Spencer, D.Patti, A.N.Bigus, R.M.Thomas, M.Die.Fisher bir qancha muhim manbalarni yoritishgan. Tevarak atrofimizni o'rab turgan borliqni joylashuvi va kompozitsiya jihatidan yaxlitligini tashkil etadigan narsalar tasvirlanishi, shu bilan birgalikda har bir ijodkor tomonidan chizilgan asar natyurmort deb ataladi. Natyurmortda uy-ro'zg'or buyumlari, tabiatdan ajratib olingan qismlar va buyumlar, qurol-aslahalar, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari va boshqalar tasvirlanadi [2. 107-b]. Natyurmort chizishda eng birinchi navbatda shakli aniq, ortiqcha bezaksiz, murakkab bo'lmagan buyumlarni tanlash kerak. Shundan so'ng natyurmort tuzish qoidalarini qo'llab natyurmort tuzish kerak.

Muhokama. Tanlangan predmetlar orasida mantiqiy bog'lanishga e'tiborni qaratish zarur va ushbu predmetlarni tasvirlashda ufq chizig'i, geometrik shakllarning o'zaro nisbatini, geometrik shakllarning tayanch nuqtalarini to'g'ri topishi, narsalar tekisligini to'g'ri aniqlay olishi, naturadagi geometrik shakllarning hajmlarini to'g'ri aks ettira bilishi, perspektiva qonuniyatlariga rioya qilishi, geometrik shakllardagi soya va yorug'larni to'g'ri aniqlay olishi hamda geometrik shakllarning fakturasini topish usullarini bilishlari lozim. Shunday ekan, qalamtasvir fanida tanlangan predmetlar orasidagi mantiqiy bog'lanish quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:


- ❖ Predmetlar birgalikda bog'liqlik jihatdan yoqimli va muvozanatli kompozitsiyani yaratishi kerak. Bu ularning o'lchamlari, shakllari, ranglari (qalamtasvirda tonlari) va joylashuvi orqali erishiladi.
- ❖ Predmetlar bir xil mavzuga tegishli bo'lishi mumkin (masalan, uy-ro'zg'or buyumlari, oshxona anjomlari, meva-sabzavotlar, kitoblar). Bu tomoshabinga ijodiy ishning ma'nosini tushunishga yordam beradi.
- ❖ Qalamtasvirda ranglar o'rniga tonlar ishlatiladi. Tanlangan predmetlar ton jihatidan bir-biriga mos kelishi, umumiy uyg'unlikni yaratishi kerak.
- ❖ Predmetlar ma'lum bir maqsadga xizmat qilishi mumkin (masalan, rassomning ustaxonasidagi asboblari, olimning laboratoriyasidagi jihozlar).
- ❖ Ba'zan rassom tanlangan predmetlarga o'zining shaxsiy ma'nosini yuklashi mumkin. Bu predmetlar rassom uchun muhim bo'lgan xotiralarni, his-tuyg'ularni yoki g'oyalarni ifodalashi mumkin[3. 68-b].

Rassomlar tomonidan ijodlarini boyitish uchun natyurmortda insonlar, hayvonlar, qushlar mavzulari bilan ham to'ldirishlari mumkin. Natyurmort - tasviriy san'at janri bo'lib,

unda asarning asosiy qahramonlari oddiy narsalardir. Bular nafaqat jonsiz narsalar, balki tirik mavjudotlar ham bo'lishi mumkin. Biroq, rassomning rejasiga ko'ra, natyurmortdagi qushlar, hayvonlar yoki odamlar ikkinchi darajali rol o'ynaydi, faqat rasmning asosiy motivini to'ldiradi. Borliqqa nazar tashlar ekan inson har bir narsada geometrik shakllarni ko'rasiz [4. 111-b] (shar, kub, prizma, konus, silindr va hokazolar) (1-rasm).



1-rasm.



2-rasm.

Natija. Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik fanida arxitektura yo'nalishi talabalari mavzular bilan tanishib borar ekan borliqdagi har bir narsaga e'tibor bilan sinchiklab kuzatib borish kerak. Ayniqsa natyurmortni endi o'rganayotgan talaba geometrik shakllar va jismlardan tashkil topgan natyurmortdan boshlagan ma'qul. Geometrik shakllar qalamtasviri asosan oddiydan murakkabga uslubida amalga oshiriladi. Buning uchun o'quv dasturlarida belgilangandek geometrik shakllarni tasvirlash muhimdir (2-rasm). Qalamni qog'oz sirtida bir xil kuch bilan bosish va chiziqlar orasidagi masofaning teng bo'lishiga e'tibor berib tasvirlash, chizilayotgan geometrik shakllarni to'g'ri bajarilishida katta ahamiyatga ega. Aylana (sferik) hajmga ega bo'lgan buyumlari bajarishda, yuqorida ta'kidlab o'tilgan chiziq tortish ellips shaklida bajarilib, buyumning ekvatoriga yaqinlashganda to'qroq tusda bo'ladi. Jumladan, tasviriy san'atda talabalarning rangshunoslik, rang texnologiyalariga oid bilimlarini rivojlantirish va kompozitsiyaga oid bilimlarini oshirishda integratsiyaga asoslangan ta'limning ahamiyati beqiyosdir. Integratsiya o'qitish va tarbiya jarayonini tashkil etishning maqsadlari, tamoyillari va mazmuni birligining ifodasi bo'lib, uning faoliyati natijasi talabalarda bilim va ko'nikmalarning sifat jihatidan yangi yaxlit tizimini shakllantirishdir [5. 90-b].

Jahonda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantirish, turdosh fanlar asoslari mazmunini integratsiyalashga doir ilmiy ishlar qilinmoqda. Bu esa o'z navbatida talabalarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlarini turli fanlar bilan integratsiyalashda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini loyihalashda qo'llay olish, mazmunini anglab yetish hamda badiiy obrazli tasavvurlarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirish imkonini bermoqda [6. 460-b]. Jumladan, AQShning Indiana University Purdue University Indianapolis (IUPUI) hamda University of North Carolina Wilmington (UNCW) ta'lim muassasalari va Sharqiy Angliya universiteti (University of East Anglia) hamda Bredferd universitetlarida (University of Bradford) bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda tasviriy san'at, muhandislik grafikasi, kompyuter grafikasi, grafik dizayn yo'nalishi, kompyuterli chizma geometriyasi, 3D simulyatorlarda fazoviy obyektlarni yaratish, o'quv predmeti va vositalarini vizual grafik dasturlar va ulardan fanlarni integratsiyalashuvidan foydalanib modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish uchun yangi, samarador, takomillashgan usul va texnologiyalarni yaratish, uni tajribada sinash va shu jarayonda yanada mukammallashgan yo'nalishini hosil qilishdan iborat bo'lgan mukammal dastur, takomillashgan darslik, zamonaviy usul va texnologiyalar ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishga ta'sir etishini inobatga olgan holda o'quv jarayonini integratsion ta'lim asosida tashkil etish asosiy masaladir. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fanlari bilan turli fanlarining integratsiyasi asosida ta'lim berish alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, ta'lim tizimining yangilanishi va rivojlanishi jahon hamjamiyatiga integratsiya kuchayayotgan sharoitda jamiyat va mamlakatning rivojlanishi o'zaro bog'langan va o'zaro asoslangan yagona jarayonning elementlaridir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Haqberdiyev, B. R., Ismag'lova, M. S. Q., & Imomnazarova, D. F. Q. (2025). Raqamli texnologiyalarda arxitektura va dizayn. Academic research in educational sciences, (Conference 1), 65-66.

2. Haqberdiyev, B., & Ismag'ilova, M. (2025). Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassislarining grafik va ijodiy kompetentligini shakllantirish. "O'zbekiston—2030: Innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(2), 106-108.
3. Haqberdiyev, B. R. (2022). Integration of engineering graphics and design science in a comparative description of methodological approaches. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(7), 67-70.
4. Haqberdiyev, B. R. Projection method in the integration of design elements and engineering graphics and design sciences. *НАУКА и ОБЩЕСТВО*, 110.
5. Ҳақбердиев, Б. (2022). Интегратив ёндашувнинг муҳим вазифалари. *О 'zbekiston milliy universiteti xabarлари*, 1(10). 89-92.
6. Haqberdiyev, B. (2025). O'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlar. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук *Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 5(5), 459-463.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).